

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-204-6

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI5-10

TEXNIKA FANLARI

Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI 11-18

Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI 19-27

TARIX FANLARI

Ergasheva Mohichexra

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA

TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL 28-31

Oralov Dostonbek

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY

JARAYONLARGA TA'SIRI 32-35

IQTISODIYOT FANLARI

Арипова Анна

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ

ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ 36-40

Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ 41-48

Авдошкина Олеся

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ

ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ 49-56

Azamatov Otabek

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED

SOLUTIONS 57-61

Eraliyev Sardorjon

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY

USULLARI 62-64

Isomuxamedov Akbarjon

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

VA TAHLIL QILISH 65-67

FILOLOGIYA FANLARI

Mamatova Feruza

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK

TURLARI 68-73

Yuldasheva Xurshida

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO

MISOLIDA 74-76

<i>Abduvaliyeva Kamola</i> “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI	77-82
---	-------

GEOGRAFIYA FANLARI

<i>Abdirayimova Ozoda</i> SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	83-86
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Alimjonov Fayozbek</i> LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI	87-91
<i>Muradullayeva Sevinch</i> SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	92-96
<i>Abdullaeva Sabokhat</i> ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS	97-105

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH	106-108
<i>Разикова Дилфуза</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ	109-112
<i>Salimova Bakhora</i> TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS	113-117
<i>Bakhronova Mahliyo</i> “DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH”	118-123
<i>Bekmuradova Gulnoza</i> TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI	124-129
<i>Rahimov Javohir</i> DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI	130-133
<i>Юсупова Сабохат</i> ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА	134-137

TARIX FANLARI

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL

Ergasheva Mohichexra Abbosjon qizi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Zarafshon vohasida olib borilgan siyosiy va ijtimoiy tadbirlarning etnik muvozanatga ko'rsatgan ta'siri tarixiy va tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va og'zaki tarixiy manbalar asosida vohadagi demografik, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Mustamlakachilik siyosatining tarixiy oqibatlari tarixshunoslik metodologiyasi asosida baholanadi.

Kalit so'zlar: demografik o'zgarish, etnik guruh, etnik jarayonlar, migratsion holat, xronikal materiallar, etnoidentifikatsiya va migratsion bosqichlar.

THE IMPACT OF THE RUSSIAN EMPIRE'S POLICY ON THE ETHNIC BALANCE IN THE ZARAFSHAN VALLEY: AN ANALYSIS BASED ON HISTORICAL SOURCES

Ergasheva Mohichexra Abbosjon qizi

PhD Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract. This article analyzes the impact of the political and social measures implemented by the Russian Empire in the Zarafshan Valley during the late 19th and early 20th centuries on the region's ethnic balance from historical and historiographical perspectives. The study examines demographic, cultural, and social changes in the valley based on archival documents, statistical data, and oral historical sources. The historical consequences of colonial policy are assessed using historiographical methodology.

Key words: demographic change, ethnic group, ethnic processes, migration conditions, chronicle materials, ethno-identification, migration stages.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-04>

Kirish

Rossiya imperiyasi 1868-yilda Zarafshon vohasini mustamlaka hudud sifatida bevosita o'z tarkibiga qo'shgan, bu yerda tub ijtimoiy va demografik o'zgarishlar yuz berdi. Imperial siyosat o'zining harbiy, ma'muriy va iqtisodiy vositalari orqali vohaning etnik tuzilmasini o'zgartirish, rus va boshqa yevropa xalqlarining ustunligini ta'minlashga qaratildi. Bu siyosatning oqibatlari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ldi:

Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatilgan, aholi tarkibida sezilarli demografik siljishlar ro'y berdi. Bu holat 1897-yilda o'tkazilgan yagona imperiya aholi ro'yxati va undan keyingi mahalliy statistik hujjatlar orqali tasdiqlanadi.

Zarafshon okrugi (Samarqand shahri va atrofida) bo'yicha 1897-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlari:

Etnik guruh	Aholi soni	Umumiy aholiga nisbati (%)
<i>O'zbeklar</i>	34 092	51,7 %
<i>Tojiklar</i>	14 123	21,4 %
<i>Ruslar</i>	7 521	11,4 %
<i>Tatarlar</i>	2 197	3,3 %
<i>Yahudiylar</i>	1 038	1,6 %
<i>Boshqalar</i>	7 978	12,1 %
<i>Jami</i>	66 949	100 % ¹

Bu raqamlar ruslar va tatarlar sonining nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi, ayniqsa inobatga olsak, bu hudud avval deyarli to'liq mahalliy musulmon aholi bilan yashab kelingan. 1868-yilga kelib esa rus aholi ulushi deyarli 0 foiz edi.

1914-yilga kelib esa: Ruslar ulushi Samarqandda 18,3 % ga yetgan².

Harbiylar va ularning oilalari, pravoslav cherkovi xizmatchilari va rus maktablarining o'qituvchilari asosiy kuchni tashkil qilgan³. Rossiya imperiyasi 1880–1910-yillar davomida Zarafshon vohasiga fermer xo'jaliklarini joylashtirish, rus ko'chmanchilarini olib kelish orqali agrar siyosatni o'zgartirdi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra: 1895–1915-yillar orasida Zarafshon vohasiga 6 000 dan ortiq rus oilasi (taxminan 28 000 kishi) joylashtirilgan⁴. Ular uchun mahalliy tojik va o'zbek aholining 42 ming desyatina yer maydoni ajratilgan (1 desyatina ≈ 1,09 gektar)⁴. Mahalliy aholining yerga egalik qilish huquqi rus qonunchiligiga muvofiq qattiq cheklangan, ayrim hollarda ularni sud orqali yeridan mahrum qilish hollari aniqlangan. Bu holat demografik holatga ta'sir qilish bilan birga, ijtimoiy tabaqalanishga ham sabab bo'lgan. Rus muhojirlari mustamlakachilik siyosati yordamida iqtisodiy jihatdan imtiyozli qatlamga aylantirildi, bu esa mahalliy aholining noroziligini oshirdi. Rossiya imperiyasi madaniy ustunlikni ta'minlash maqsadida quyidagi choralarni ko'rdi: 1870-yillarda Samarqand va Kattaqo'rg'onda pravoslav cherkovlari qurildi. 1887-yilda Samarqandda rus-tuzem maktabi ochildi. Bu maktabda rus va tatar o'qituvchilari faoliyat yuritib, rus tili va madaniyatini singdirish asosiy maqsad bo'lgan⁵. 1911-yilga kelib, vohada faoliyat yuritayotgan davlat maktablarining 75 % ida o'quv tillari rus tilida olib borilgan.

Madaniy ta'sir vositasi sifatida rus tilining sud, harbiy va ma'muriy tizimda majburiy tili sifatida joriy etilishi, musulmon aholining huquqiy jihatdan chetlanishiga olib keldi. 1868–1917-yillar oralig'ida Zarafshon vohasida rus-slavyan aholisi soni 0 dan ~ 40 000 kishigacha o'sgan. Ruslar va tatarlarga yer, ta'lim, ma'muriy lavozimlar va kredit tizimida ustunlik berilgan. Mahalliy aholining yirik yer egaligi 1890-yilga kelib 36 % dan 17 % ga qisqargan. 1916-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, vohada etnik guruhlar orasidagi iqtisodiy tengsizlik darajasi (soliq to'lovlari, yer egaligi, kredit olish imkoniyati) o'rtacha 3:1 nisbatda bo'lgan (rus foydasiga).

¹ См.: Усманова Д. Этнические процессы в Центральной Азии: источники и интерпретации. – Казань: Татар. ун-т, 2003. – С. 19.

² Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. – СПб., 1899. – Т. Самаркандская область

³ Ахмед Дониш. Наводир-ул-вақое. – Тошкент, 1960. – Б. 42–45

⁴ Муллажанов А. История народов Средней Азии. – Ташкент, 1973. – С. 101–105.

⁵ Назаров Б. Этносоциальные процессы в Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2002. – С. 7

Zarafshon vohasidagi etnik jarayonlarni o'rganishda asosiy manba bazasi ikki guruhga ajratiladi: Rasmiy manbalar – Rossiya imperiyasi ma'muriy hujjatlari, aholi ro'yxatlari, statistika byurolari hisobotlari, rasmiy gazetalarda chop etilgan farmon va qarorlar. Norasmiy manbalar – mahalliy ziyolilar asarlari, sayyohlar va sharqshunoslar xotiralari, matbuot, etnografik tavsiflar va xronikal materiallar.

Bu manbalar Zarafshon vohasidagi etnik tarkib, migratsiya oqimlari, ijtimoiy ziddiyatlar va madaniy tafovutlarni aks ettiradi. Ular orasida 1897-yilgi umumrossiya aholi ro'yxati, Samarqand viloyati uchun chiqarilgan statistik ma'lumotnomalar muhim o'rin tutadi².

XIX– XX asrlar o'rtasida mahalliy ziyolilar orasida etnik munosabatlar, ijtimoiy tengsizlik va madaniy qarama-qarshiliklar mavzusiga qiziqish ortib bordi. Ayniqsa:

- Ahmad Donish (1827–1897) – o'zining ijtimoiy-tanqidiy qarashlarida amirlikdagi tengsizlik va imperiya ta'sirini keskin tanqid qilgan.
- Shamsiddin Shohin va boshqa tojik ziyolilari rus hukmronligi davrida tojiklar va o'zbeklar orasidagi madaniy tafovutlar haqida yozishgan.
- Abdurauf Fitrat, keyinchalik, turkistonliklar o'rtasidagi madaniy uyg'onish va mustamlakachilikning salbiy oqibatlariga urg'u bergan.

Ularning asarlarida etnik jarayonlar madaniy muhit bilan chambarchas bog'langan holda tasvirlanadi. Bular tarixshunoslikda sub'yektiv kuzatuvlar manbasi sifatida qimmatli hisoblanadi. Rossiya imperiyasi harbiylari va sharqshunos olimlari Zarafshon vohasida olib borilgan etnografik kuzatuvlar natijasida boy ma'lumotlar qoldirishgan.

Jumladan:

- ✓ N.I. Veselovskiy, P.I. Lerkh, V.V. Bartold – o'z asarlarida voha xalqlari orasidagi madaniy tafovutlar, o'zaro ta'sir va sotsiologik qatlamlashuv haqida yozishgan¹.
- ✓ N.P. Ostroumov esa rus missioner siyosatini “ma'naviy yuksaltirish” deb baholagan bo'lsa-da, uning kuzatuvlarida real etnik ziddiyatlar ham aks etgan.

Bu manbalar zamonaviy tarixshunoslikda “mualliflik tarafkashligi” bilan baholanadi, biroq ular etnik tarkib, turmush tarzi, migratsion holat kabi masalalarda qimmatli dalillarga ega.

Sovet davrida (1920–1980-yillar) etnik jarayonlarga marksistik nuqtayi nazar ustuvor bo'lib, etnik guruhlar o'rtasidagi sinfiy kurashga urg'u berildi. Etnik masalalar :

- ko'proq “xalq do'stligi” g'oyasi asosida baholangan;
- rus mustamlakachiligi masalasi chetlab o'tilgan yoki ijobiy ko'rinishda yoritilgan;
- mahalliy etnoslar tarixiga doir manbalar cheklangan holda tahlil qilingan.

Lekin Y. Gulyamov, N. Mallaev, A. Raximov kabi olimlar bu holatga qaramay, Zarafshon vohasi tarixini manbashunoslik asosida tahlil qilganlar.

1991-yildan keyingi tarixshunoslikda etnik tarix, mustamlakachilik siyosati va madaniy asoratlar ochiq va tanqidiy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqildi. Ayniqsa:

- ✓ Rossiya siyosatining demografik va iqtisodiy oqibatlari o'rganila boshlandi;
- ✓ Mahalliy arxiv hujjatlari (O'zbekiston Markaziy Davlat Arxivi) keng jalb etildi;

Etnoidentifikatsiya va migratsion bosqichlar tarixiy-geografik tahlil asosida yozilmoqda².

¹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Наука, 1963. – С. 18–22

² Назаров Б. Этносоциальные процессы в Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2002. – С. 73–76

Bugungi tarixshunoslikda Zarafshon vohasi ko'p etnosli muhit sifatida talqin etilmoqda, bunda etnoslararo muvozanat, integratsiya va assimilyatsiya jarayonlari alohida mavzu sifatida ajralib chiqmoqda.

Xulosa

Zarafshon vohasidagi etnik jarayonlar tarixini o'rganish ko'p qirrali manbalar asosida olib borilishi kerak. Rasmiy statistik ma'lumotlar vohaning demografik holatini aks ettirgan bo'lsa, mahalliy va xorijiy mualliflarning xotiralari, ilmiy va badiiy asarlari mazkur jarayonlarning ichki mohiyatini yoritib beradi. Tarixshunoslikda bu manbalarni tanqidiy yondashuv asosida tahlil qilish orqali voqa tarixidagi murakkab etnik muvozanatni anglash mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. – СПб., 1899. – Т. Самаркандская область
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Наука, 1963.
3. Назаров Б. Этносоциальные процессы в Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2002.
4. Усманова Д. Этнические процессы в Центральной Азии: источники и интерпретации. – Казань: Татар. ун-т, 2003.
5. Ахмед Дониш. Наводир-ул-вақое. – Тошкент, 1960. – Б. 42–45
6. Муллажанов А. История народов Средней Азии. – Ташкент, 1973. – С. 101–105.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari.** – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.